

AKSIYADORLIK JAMIYATLAR MOLIYAVIY FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEZONLARI.

<https://zenodo.org/records/11521351>

Shernayev Akbar Aqmirezayevich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya"
kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya Maqolada Aksiyadorlik jamiyatlarning boshqaruvni rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va yangi zamonaviy loyihalarda ishtirokini oshirish hamda korporativ boshqaruva orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

Kalit so'zlar. Aksiyadorlik jamiyatları, heyj fondları, kompaniyaları korporativ boshqaruv tamoyillari orqali rivojlantirish, kapital bozori, investitsiya, korporativ boshqaruv, texnologik yangiliklar, iqtisodiy rivojlanish.

Mavzuning dolzarbliji. Mamlakatimizda nisbatan qisqa davr ichida mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, aktsiyadorlik jamiyatları va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish hamda qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi to'liq ma'noda xususiy mulkchilik huquqini himoya qilish hamda iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylanishi mumkin bo'lgan raqobatbardosh milliy aktsiyadorlik jamiyatları shaklidagi korporativ tadbirkorlikni rivojlanishiga muhim asos yaratdi.

Hozirgi kunda aktsiyadorlik jamiyatları (korporatsiyalar) milliy iqtisodiyotning istiqbolini belgilashda ko'proq rol o'yynamoqda va ular ishlab chiqarish ko'lmini kengaytirish hamda yangi ish o'rinalarini yaratish orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarmoqda. Shu bilan bir paytda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining sust faoliyati korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, unga ichki va tashqi investitsiyalarini jalb etishni kengaytirish, istiqbolli korporativ strategiyani amalga oshirish va shu kabi boshqa ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirmoqda.

Shularni inobatga olganda ochiq aktsiyadorlik jamiyatları rivojlanish strategiyasini tanlashda korporativ boshqaruv organlarining rolini oshirish;

aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholash usullari va dividend siyosatini, shuningdek, korporativ boshqaruvning ichki korporativ me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sharoitida muhim dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda va jahon bozorida u yoki bu milliy iqtisodiyotning qiyofasi ko'p jihatdan yirik tadbirdorlik bilan belgilanadi va uning o'zi korporatsiyalar timsolida umumiyligi iqtisodiy va tijorat maqsadlarini amalga oshirish uchun tashkilotlarning ma'lum bir shaklini ifodalaydi. Barcha tashkilotlar tizimlar hisoblanadi. Tizim o'zaro bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan qismlardan tarkib topgan bir yaxlitlikni ifodalaydi. Ularning har biri bu yaxlitlikning hayot faoliyati va samaradorligiga o'z hissasini qo'shami. Tashkilotlar ochiq tizimlar hisoblanadi, chunki ularning kun ko'rishi to'laligicha tashqi dunyoga bog'liq bo'ladi. Tizimni tashkil etuvchi nisbatan yirik bloklar quyitizimlar deb ataladi.

Har qanday ishbilarmonlik korxonasi tashkilotning u yoki bu shaklini ifodalaydi va butun iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, chunki aynan shu darajada jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlar yaratiladi va sotiladi. Har qanday korxona yuridik shaxs hisoblanib, o'z hisob va hisobot tizimiga, mustaqil buxgalteriya balansiga, hisobraqami va boshqa schetlarga, tovar belgi (marka)si va mustaqil tashkilotning boshqa atributlariga ega bo'ladi. Korxona yaratish va faoliyat ko'rsatishining asosiy maqsadi u ishlab chiqargan mahsulotni sotish hisobiga maksimal foyda olish hisoblanadi. Aktsiyadorlik jamiyati (AJ) ta'sischilar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida chiqariladigan aktsiyalar emissiyasi orqali kapitallarni birlashtirish yo'li bilan tashkil etiladigan korxonani ifodalaydi. AJ tashkil qilish jarayonining o'zi aktsiyadorlik jamiyatlari haqidagi qonun bilan tartibga solib boriladi. Xususiylashtirilgan korxonalar asosida aktsiyadorlik jamiyatini tashkil qilishda uni yaratish tartibi xususiylashtirish to'g'risidagi qonun asosida tartibga solinadi.

Aktsiyadorlik jamiyatini ajratib turadigan xususiyat uning kapitalini qatnashchilar o’rtasida tarqatiladigan aktsiyalar belgilangan soniga taqsimlash hisoblanadi.

Ustav fondi (ustav kapitali) aktsiyadorlarning aktsiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aktsiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aktsiyadorlik jamiyati deb e’tirof etiladi.

Aktsiyadorlik jamiyati yuridik shaxs bo’lib, u o’z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o’zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo’ladi, o’z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo’lishi mumkin.

Jamiyat O’zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir. Jamiyat o’zining tashkiliy-huquqiy shakli ko’rsatilgan to’liq firma nomiga ega bo’ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo’lishi mumkin. Jamiyat o’zining firma nomi davlat tilida to’liq yozilgan hamda joylashgan eri ko’rsatilgan yumaloq muhrga ega bo’lishi lozim.

Aktsiyadorlik jamiyatining xususiyati uning qimmatli qog’ozlari ochiq bozorda erkin muomalada bo’lishidan iborat. Bu erda nizom kapitali aktsiyadorlar o’rtasida taqsimlanadigan aktsiyalarning belgilangan soniga bo’linadi. Aktsiyalar egalari bu aktsiyalardan dividend oladi va buning uchun to’lagan summasi bilangina tavakkal qiladi. Aktsiyadorlardan har biri unga tegishli bo’lgan aktsiyalar hajmiga muvofiq jamiyat majburiyatları bo’yicha javob beradi. Aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi korporatsiya egalik qilish, faoliyatda ishtirok etish va tasarruf qilish huquqlarini aniq belgilashga imkon beradi. Korporatsiyalarning bunday shakli investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi. Shu bilan bir paytda aktsiyalarga egalik qilish ko’pincha boshqaruvda ishtirok etishga faqat ramziy huquq berishini ham hisobga olish zarur.

Respublikada so’nggi yillarda mamlakatni modernizatsiya qilish tuflyi jiddiy iqtisodiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu asosiy makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo’yicha ustuvor vazifani amalga oshirish—iqtisodiyotning mavjud

moliyaviy salohiyatini ichki investitsiyalarga ko'chirish sifat jihatidan yangi o'sish omillarini faollashtirishni, avvalo, tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirishni hal etishni, islohotlarni tezlashtirishni, iqtisodiyotning real sektori jalg etuvchanligini oshirishni, kapitalning tarmoqlararo ko'chib o'tish jarayonlarini faollashtirishni talab qiladi. Biroq, foyda olishga yo'naltirilgan yirik ishlab chiqarish birlashmalarini boshqarish tajribalarisiz, aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishsiz milliy ishlab chiqaruvchilar uchun investitsiyalash muammoli bo'ladi.

Mavzuga oid mavjud muammolar. Bugungi kunda aktsiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruv va nazoratni shakllantirish, pirovardida, milliy korxonalarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, barqaror iqtisodiy o'sishni va investitsion jarayonning faollashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan. Respublikamizda samarali korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etishni qiyinlashtiruvchi quyidagi asosiy sabablarni va o'ziga xos xususiyatlarni ajratish imkonini berdi: aksariyat korxonalar moddiy ahvolining murakkabligi; aktsiyadorlar huquqlarining buzilishi; milliy fond bozorining zaifligi; davlatning ko'plab korxonalar kapitalida ishtirok etishining yuqori darajasi; korporativ boshqaruvning amaliy masalalari bo'yicha uslubiy materialarning kamchiligi; bozor talablariga javob bermaydigan davlat tuuzilmalarining mavjudligi; qonun hujjatlarining korporativ munosabatlar ishtirokchilarining javobgarligiga doir qoidalarining ishlamayotganligi; korporativ boshqaruv sohasida tajribali yuqori malakali menejerlarning taqchilligi; korxonalar faoliyatining strategik yo'naltirilmaganligi; o'rta muddatli va uzoq muddatli natijalarga emas, qisqa muddatli natijalarga yo'naltirilganlik; korporativ madaniyatning rivojlanmaganligi tufayli korporativ boshqaruv tamoyillarining samarasiz amalga oshirilishi.

Muammoni hal qilish usullari. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi aktsiyadorlik jamiyati barqaror rivojlanishi uchun samarali boshqarish tizimini yaratishdan iborat. Uning vazifalari esa aktsiyadorlar huquqi va manfaatlarini himoya qilish, jamiyat boshqaruv organlari vakolatlarini aniq belgilagan holda

shakllantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, ma'lumotlarni tezkorligi va haqiqiyigini ta'minlashga qaratilgan.

Yana bir muhim jihatni korporativ boshqaruvda shaffoflik va halollik, hisobdorlik hamda mas'uliyatlilikdan iborat tamoyillarga tayaniladi. Bunday boshqaruv joriy qilinganda ishlab chiqarish hajmi ko'payib, sifati yaxshilanadi, pul mablag'laridan oqilona foydalaniladi, mehnat unumdarligi ko'tariladi, investitsion va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun kerakli mablag'larni jalb qilish hamda jamiyat rentabellik darajasi yuksaladi. Aktsiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni va menejerlarni jalb qilish, ularni korporativ boshqaruv tizimi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorlarga chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalidagi davlat aktivlari va ulushlarini qisqartirish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korporativ boshqaruv kodeksi qabul qilingani esa tizimdagi islohotlarning mantiqiy davomidir. Hozirgacha dunyoda korporativ boshqaruv bo'yicha 100 dan ortiq hujjatlar qabul qilingan. Ularning dastlabkisi 2003 yilda kuchga kirgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida ko'plab tuzatish va o'zgartishlar kiritildi. Yurtimizda bunday hujjat rivojlangan davlatlar tajribasi o'r ganilgan holda, pishiq-puxta ishlab chiqilgani, xalqaro andozalarga to'la javob berishi bilan ajralib turadi. Natijada u aktsiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Kompaniyalar rahbariyatida qabul qilinayotgan qarorlarning oqibatlari, mulkning saqlanishi va samarali foydalanilishi, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari, aktsiyadorlar va investorlarning huquqlarini himoya qilish uchun tegishlicha javobgarlikning yo'qligi.

O'zbekistonda korporativ boshqaruv o'zaro aloqa qiluvchi xo'jalik sub'ektlari o'rtasida o'z manfaatlarini subordinatsiyalash va uyg'unlashtirish, aktsiyadorlik kapitalidan foydalanish, turli yuridik shaxslarning harakatlarini samarali tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha boshqaruv munosabatlari

tizimini ham, ularning qo'yilgan maqsadlarga erishishda tashqi kontragentlar (jumladan, davlat organlari) bilan o'zaro munosabatlarini ham ifodalaydi. Samarali boshqaruv munosabatlarini amalga oshirish bo'yicha korporativ boshqaruv asosiy organi sifatida namoyon bo'ladigan kuzatuv kengashining asosiy funktsiyasi aktsiyadorlik jamiyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni shak-shubhasiz amalga oshirish hisoblanadi.

Biznes yuritishning korporativ shakli respublika uchun nisbatan yangi bo'lib, hozirgi paytda shakllanish bosqichida turgan holda hali etarli darajada boshqaruv tajribasi bilan mustahkamlanmagan va professional korporativ menejerlar, boshqaruv texnologiyalari, metodologik bazaning etarlicha rivojlanmagan sharoitlarida faoliyat yuritmoqda. Korporativ boshqaruvda muammoli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari odatda mulkka egalik qilishni uni bevosita boshqarishdan ajratish va korporativ munosabatlar qatnashchilarining asosiy guruhlari manfaatlari bo'yicha farqlanadigan kurash bilan bog'lanadi.

Muayyan korxonada aktsiyadorlik mulkini nazorat qilish uchun alohida guruhlar – korporativ munosabatlar qatnashchilarining ularni taqsimlashda tarqoqlik darajasi bilan belgilanadigan aktsiyalar paketlari nisbati katta ahamiyatga ega. Xususiy lashtirilgan korxonalarda mulkchilik tuzilmasini tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkich butun mamlakatning korporativ munosabatlar asosiy qatnashchilari o'rtaida aktsiyalarni yiriklangan ko'rinishda taqsimlash hisoblanadi.

Aktsiyadorlik nazorati o'rnatish usullaridan biri qo'shib olish, ya'ni aktsiyalar nazorat paketini xarid qilish hisoblanadi. Qo'shib olishni qonunchilik tomonidan tartibga solishdan maqsad – belgilangan hajmdagi aktsiyalar paketining bitta yoki bir nechta shaxslarda to'planishida aktsiyadorlar huquqlarini ta'minlash hisoblanadi, ular bunday birlashish natijasida aktsiyadorlar umumiyligiga yig'ilishida qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish vositalariga (to to'liq nazoratgacha) ega bo'ladi, bu esa, o'z navbatida jamiyatning dividend siyosatida va aktsiyalar kurs qiymatida aks etishi mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda ko'plab faoliyat sohalari uchun rasman har xil yuridik shaxslarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi istisno emas, qoida hisoblanadi, bu

mohiyatiga ko'ra, umumiy biznes hisoblanadi, uning tarkibiga kiradigan kompaniyalar esa umumiy iqtisodiy maqsadlarga ega bo'ladi. Bunday tuzilmalarni tartibga solishda ularda boshqaruv xususiyatlarini, tovar va moliya oqimlarini tashkil qilish xususiyatlarini, soliqqa tortiladigan bazani aniqlash xususiyatlari va hokazolarni hisobga olish zarur. Aniq tartibga solishning yo'qligi xoldinglar normal faoliyat ko'rsatishini qiyinlashtiribgina qolmay, ko'pincha ularga minoritariylar va davlat manfaatlarini kamsitishga ham imkon.

Amaldagi qonunchilikda o'zaro bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarni tartibga solish uchun turli institutlar ko'zda tutilgan. O'zaro bog'liq bo'lgan yuridik shaxslarni huquqiy munosabatlar o'ziga xosliklari, tartibga solish maqsadlari, yuzaga kelgan amaliyot hamda mavjud mahalliy va xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda tizimli huquqiy tartibga solishni ta'minlash zurar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. SHERNAEV A.A. TAX ANALYSIS IN MICROLEVEL TAX PLANNING // ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. FEBRUARY, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p.
2. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». Международный ежемесячный научный журнал - №9-2 (67). Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 149-152.
3. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357
4. Шернаев А.А. Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах // «Интернаука»: научный журнал - № 12(141). Часть 2. Москва, изд. «Интернаука», 2020. - с. 43-45
5. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies- ISSN, 2347-4378.
6. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.